

**INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION
OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.**
International online conference.

Date: 27th May-2025

**FOYDALI QAZILMALAR OCHIQ USULDA QAZIB OLISHDA KARYER
HAVOSI VA UNING ASOSIY TARKIBI.**

F.R. Usmonov

Osiyo xalqaro universiteti

“Umumtexnik fanlar” kafedrasi o’qituvchisi



Annotatsiya: Foydali qazilmalarni ochiq usulda qazib olish jarayonida karyer havosi muhim omillardan biri hisoblanadi. Karyer havosi tabiiy atmosferadan farqlanib, unda turli gazlar, chang va sanoat chiqindilari mavjud bo‘lishi mumkin. Uning asosiy tarkibiy qismlari orasida kislород (O_2), azot (N_2), karbonat angidrid (CO_2) va boshqa sanoat jarayonlarida hosil bo‘luvchi gazlar (CO , NO_x , SO_2) hamda mayda chang zarralari mavjud. Karyer havosining sifati kon ishchilari salomatligi va atrof-muhitga ta’siri nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Ushbu mavzu karyer havosining monitoringi, zaruriy ekologik va texnologik chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llarini o‘rganishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Karyer havosi, ochiq kon ishlari, atmosfera tarkibi, changlanish, gazlar konsentratsiyasi, ekologik xavfsizlik, ishchilar salomatligi, havo monitoringi, changsizlantirish usullari, kon havosini tozalash.

Kirish: Hozirgi vaqtida ishlab turgan va yaqin kelajakda ishga tushiriladigan konchilik korxonalar samaradorligini oshirishda yuqori unumdonlikka ega bo‘lgan innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish bilan bir qatorda konlarni ochiq usulda qazib olishni rivojlantirish muhum rol o‘ynaydi. Chunki konlarni ochiq usulda qazib olish texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan istiqbolli hisoblanadi. Biroq karyerlarda ishlab chiqarish jarayonlari intensivligi va karyer chuqurlashish tezligining oshishi natijasida ish joylarida normal aerologik sharoitlarni yaratish muammosi yanada keskinlashmoqda. Bu muammoni hal qilish uchun ko‘p sonli ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstrukturlik ishlarini quyidagi yo‘nalishlarda olib borilmoqda: karyerlarni sun’iy shamollatish vositalarini yaratish; karyerlarni tabiiy va sun’iy shamollatishda havo harakati nazariyasini o‘rganish; karyer atmosferasiga zararli moddalar ajralib chiqishining oldini olish va mashinalar kabinasida mehnatni muhofaza qilish qoidalari talablariga to‘la javob beradigan sharoitlarni ta’minlash.

Karyer havosi – bu kon lahmlari bo‘ylab harakatlanuvchi va doimo atmosfera havosiga nisbatan tarkibini o‘zgartiruvchi gaz va bug‘ aralashmasidir.

Namlik, harorat, bosim va havoning hajmiy massasi kabi ko‘rsatkichlar karyer atmosferasining doimo o‘zgarib turadigan ko‘rsat- kichlarini tashkil qiladi.

Karyerga yer yuzidan kirib keladigan atmosfera havosi quyi- dagi tartibda bo‘ladi: N_2 – 78,08 %, O_2 – 20,95 %, CO_2 – 0,03 %, A – 0,93 % va boshqa gazlar – geliy, neon, kripton, suv bug‘lari, uning tarkibidagi komponentlari (O_2 , N_2 va CO_2) hamma vaqt quyidagi nisbatda bo‘ladi: 1:3,37:0,001. Konlarning gazdorligi, kon jinslarining

INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th May-2025



oksidlanishida O₂ ni yutishi va ishlab chiqarish jarayonlarining uzoq vaqt davom etishi kabi omillar karyer atmosferasining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Karyer havosida atmosferaga nisbatan O₂ kamayishi bilan bir qatorda CO₂ ko‘payib boradi va zaharli gazlar, shuningdek, chang va qumlar paydo bo‘ladi.

Karyer havosi tarkibidagi O₂, N₂ va CO₂ gazlarining yuqorida keltirilgan o‘zgarishi bo‘yicha uch ko‘rinishga ega: atmosfera havosi, faol gazlar (PM gazlari, zaharli va portlovchan gazlar) hamda o‘lik havo.

«O‘lik havo» – bu tarkibida N₂, CO gazlari atmosferadagi ushbu gazlar miqdoriga nisbatan ortiqcha ko‘p bo‘lgan yoki tarkibida kislород bo‘lmagan kon havosi.

«O‘lik havo»dagi CO₂: N₂ nisbat muayyan sharoit uchun doimiy bo‘lib, karyerdagi gaz almashinuvini kuzatishga imkon beradi.

Tadqiqotlar natijasida karyer havosi odatdagи atmosfera havosi sifatiga (tarkibiga) ega havo ekanligi, shuningdek, uning tarkibida yuqorida keltirilgan gazlardan tashqari azot oksidi, uglerod oksidi, oltingugurt-vodorod, oltingugurt gazi va aldegidlar kabi zaharli gazlar va bug‘lar mavjudligi ham aniqlangan.

Kislород (O₂) – hidsiz, rangsiz, ta’msiz gaz bo‘lib, zichligi 1,11 ga teng. Kislородning suvda erishi havoning suvda erishiga nisbatan, taxminan 5 marta ko‘p. Ishlab chiqarish (mehnat qilish) joylarida havo tarkibidagi kislород miqdori xavfsizlik qoidalari bo‘yicha 20 % gacha kamayganda odamlarning hushdan ketishi sodir bo‘ladi, 9 % gacha kamayganda esa «Kislород yetishmasligi»(anoksimiya) natijasida odamlar o‘lishi mumkin.

Azot (N₂) – rangsiz, hidsiz, mazasiz, zichligi 0,97 ga teng bo‘lgan gaz. Odatiy sharoitlarda azot gazi zararsiz bo‘lib, yuqori haroratlarda u kislород va vodorod gazlari bilan qo‘shilishi mumkin.

Karbonat angidrid gazi (CO₂) – zichligi 1,52, hidsiz, biroq nordon mazali gaz bo‘lib, suvda oson eriydi. Havo tarkibida CO₂ gazining miqdori 5 % bo‘lsa, odamlarning nafas olishi tezlashadi, 6 % bo‘lganda kuchli harsillash va holsizlanish, 10 % va undan ortiq bo‘lganda hushsizlanish va 20–25 % ga yetganda esa o‘lim bilan yakunlanadigan kuchli zaharlanish sodir bo‘ladi. Karyer havositarkibida CO₂ gazi miqdori 0,5 % gacha bo‘lsa, u odamlar hayoti uchun zararsiz hisoblanadi.

Yerosti suvlari, yong‘inlar, portlatish ishlari, olovli burg‘ilash va ichki yonuv dvigatellarining ishlashi karyer atmosferasiga CO₂ gazi qo‘shilishining asosiy manbalari hisoblanadi.

Uglerod oksidi (CO₂) – rangsiz, hidsiz, mazasiz va zichligi 0,97 ga teng bo‘lgan gaz. Bu gaz suvda qiyin eriydi. Uglerod oksidining inson organizmiga zararli ta’siri qondagi gemoglobin bilan oson birikib (kislородга nisbatan 250–300 marta faolroq), qondagi kislородни siqib chiqarishi tufayli sodir bo‘ladi, ya’ni kislород yetishmasligiga olib keladi.

Havo tarkibida uglerod oksidi miqdori 1 % ni tashkil qilsa, odamlar ushbu havodan bir necha marta nafas olganda hushidan ketadi. Uglerod oksidi konsentratsiyasi 0,05 % atrofida bo‘lganda 1 soatdan so‘ng sust zaharlanish, bosh og‘rig‘i, quloplarda shovqin paydo bo‘ladi. Agar odamlar uglerod oksidi konsentratsiyasi 0,01 % ni tashkil qilgan

INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th May-2025

atmosferadan uzoq vaqt nafas olsa, surunkalizaharlanish kasalligiga duchor bo‘ladilar.

Portlatish ishlari, ichki yonuv dvigatellarining ishlashi, yong‘in-lar, olovli burg‘ilash va shu kabilar karyer atmosferasiga uglerod oksidini chiqaruvchi manbalar hisoblanadi.

Ba’zi hollarda, ayniqsa, portlashning gazsimon hosilini baho- lashda «шартли углерод окиси», ya’ni PM portlashida hosil bo‘lgan CO va azot ikki oksididan foydalaniadi. Bunda 1 litr NO₂ 6,5 litr CO ga teng deb qabul qilinadi.

Vodorod sulfid (H₂S) – bu rangsiz, chuchmal ta’mli palag‘da bo‘lgan tuxum hidiga o‘xshash hidli, zichligi 1,19 bo‘lgan gaz. Bugaz insonlarning asab tizimiga ta’sir etib, nafas yo‘llari va ko‘zningshilliq qobig‘ini yallig‘lantiradi.

Havo tarkibida 0,01 % H₂S gazi mavjud bo‘lsa, bir necha soatdan so‘ng odamlarda yengil zaharlanish sodir bo‘ladi, gaz miqdori 0,05 % bo‘lsa 0,5–1 soatda odamlar xavfli zaharlanishlari mumkin, agar gazning havo tarkibidagi konsentratsiyasi 0,1 % ni tashkil qilsa, u holda o‘lim sodir bo‘ladi. Karyerlarda oltingugurt-vodorod gazi kon jinslari va suvdan sizib chiqib, atmosferaga qo‘shiladi.

Oltingugurt gazi (SO₂) – rangsiz, o‘tkir hidli, oltingugurt ta’miga ega va zichligi 2,2 ga teng gaz bo‘lib, suvda yaxshi eriydi. Yuqori nafas yo‘li va ko‘zning shilliq qobig‘iga ta’sir etadi. Bu gazning havo tarkibidagi konsentratsiyasi yuqori bo‘lgan hollarda o‘pkaga ta’sir etib, yo‘talish, ko‘krak qisilishi va xirillash kabi kasal- liklarni keltirib chiqaradi. Oltingugurt gazining havo tarkibidagi konsentratsiyasi 0,05 % ni tashkil qilganda odamlar uning ta’siridaqisqa vaqt ichida bo‘lsa-da, bu ularning hayoti uchun xavfli hisoblanadi.

Yong‘inlar va tarkibida oltingugurt miqdori yuqori bo‘lgan kon jinslarini portlatishlar karyer atmosferasiga oltingugurt gazi ajralib chiqishining asosiy manbalari hisoblanadi.

Aldegidlardan karyer atmosferasi uchun xavfli bo‘lgan gazlar akrolein va formaldegidlardir.

Akrolein (CH₂CHCOH) – havo tarkibida bug‘ ko‘rinishida mavjud bo‘lib, kuygan yog‘ning yoqimsiz o‘tkir hidi kabi hidga ega. Akrolein bug‘i havodan 1,9 barobar og‘ir bo‘lib, burun bo‘shlig‘i va ko‘zning shilliq qobig‘iga ta’sir etadi, bosh aylanishi, ko‘ngil aynishi, quşish va qorindagi og‘riqlarni keltirib chiqaradi.

Akroleinning havo tarkibidagi konsentratsiyasi 0,0005 % bo‘li- shiga chidash qiyinchilik bilan kechadi, 0,002 % bo‘lganda esa unga umuman chidab bo‘lmaydi. Konsentratsiyasi 0,014 % bo‘lgan havoda odamlarning 10 daqiqa mobaynida bo‘lishi ular hayotiuchun xavfli hisoblanadi.

Formaldegid (CH₂O) – rangsiz, o‘tkir bo‘g‘uvchi hidli gaz, zichligi 1,04. Formaldegid burun bo‘shlig‘i shilliq qavati va markaziy asab tizimiga ta’sir etadi. Shuningdek, terining nerv kasalligigasabab bo‘ladi.

Formaldegidning havo tarkibidagi konsentratsiyasi 0,002 % bo‘lganda formaldegid bilan surunkali zaharlanish natijasida odamlar ovqat hazm qilishining buzilishi, yurak urishining tezlashishi, doimiy bosh og‘rishi, uyqusizlik, ishtahasizlik, burun bo‘shlig‘i va ko‘z shilliq qobig‘ining kasallanishi kabi illatlarga duchor bo‘ladi.

Ichki yonuv dvigatellari va termik burg‘ilash jarayonlari. Ichki yonuv

INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th May-2025



dvigatellari karyer atmosferasiga aldegidlarni chiqaruvchi manbalar hisoblanadi. Foydali qazilma konlarini qazib olishda karyer atmosferasiga ma'lum miqdorda chang ajralib chiqadi. Chang o'lchami 0,1–0,5 mm dan kichik bo'lgan mayda qattiq zarralar bo'lib, ular zaharli va zaharsiz bo'lishi mumkin. Tarkibida qo'rg'oshin, simob, xrom, marganes, mishyak, surma va boshqa zaharli elementi bo'lgan changlar zaharli chang bo'lib, ulardan nafas olish odamlarni maxsus kasbiy kasalliklarga chalinishiga olib keladi. Tarkibida kvars, ko'mir, silikatlar kabi boshqa elementlar bo'lgan changlar zaharsiz changlar hisoblanadi. Biroq, zaharsiz changli atmosferadan uzoq vaqt davomida nafas olish odamlarni silikoz, antrokos, aspetos va boshqa kasbiy kasalliklar bilan kasallanishiga olib keladi.

Ishchilar hayoti uchun radioaktiv changlar o'ta xavfli hisoblanadi. Bu changlar odamlar hayotiga odatiy ta'sir etish bilan bir qatorda ularni rak kasalligiga chalinishiga olib keladi.

Silikoz bilan kasallanish chang tarkibida kremniy ikki oksidi (SiO_2) mavjud bo'lganda sodir bo'ladi. Karyer ish joylarida DSt talablariga binoan havoning changlilik darajasi ruxsat etilgan konsentratsiya (REK) dan oshmasligi lozim.

Kremnezyom changi:

- kristallahgan kremniy ikki oksidi (kvars, krestobalit, trizimi) ning chang tarkibidagi miqdori 70 % dan ko'p (kvarsit, danas va b.) bo'lsa – 1 mg/m³;
- kristallahgan kremniy ikki oksidi chang tarkibidagi miqdori 10 dan 70 % gacha (granit, shamot ham – sluda va b.) bo'lsa – 2 mg/m³; kristallahgan kremniy ikki oksidining chang tarkibidagi miqdori 2 dan 10 % gacha (yonuvchi slaneslar, sulfidli misrudalari, glina va b.) bo'lsa – 4 mg/m³;
- ko'mir va jinsli ko'mir changi: tarkibida 5 % gacha kremniy ikki oksidi bo'lgan antrasit – 6 mg/m³;
- tarkibida 5 % gacha kremniy ikki oksidi bo'lgan toshko'mir changi – 10 mg/m³;
- tarkibida 5–10 % erkin kremniy ikki oksidi bo'lgan ko'mir jins va ko'mir changi – 4 mg/m³;
- slikatlar va silikat tarkibli chang: tabiiy va sun'iy asbest, shu- ningdek, asbest va jins zarrachalari aralashgan chang tarkibidagi asbest miqdori 10 % dan ko'p bo'lsa – 2 mg/m³;
- talk, sluda – aflagopt va muskovit – 4 mg/m³; olivin, apatit, fosforit, glina – 6 mg/m³;
- aluminiy oksidi (glinozyom, elektrokorund, monokordid) – 6 mg/m³;
- dolomit, ohaktosh, barit, fosforit – 6 mg/m³;
- temir oksidi 3 % gacha marganes oksidi bilan birga – 6 mg/m³;
- temir oksidi 2 % dan 6 % gacha ftorli yoki marganesli birikmalar bilan birga – 4 mg/m³; magnezit – 10 mg/m³;
- xrom angidridi, xromatlar, bixromatlar (C_2O_3) ga qayta hisob-laganda – 0,01

**INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION
OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.**
International online conference.

Date: 27th May-2025

mg/m³;

- uran (erimaydigan birikmalar) – 0,075 mg/m³.

Ish zonasi havosi tarkibida bir vaqtning o‘zida, bir yo‘nalish bo‘yicha ta’sir etuvchi bir necha zaharli moddalar mavjud bo‘lsa, ya’ni moddalar kimyoviy tarkibi va odam organizmiga biologik ta’sir ko‘rsatish xarakteriga yaqin bo‘lsa, u holda quyidagi mutanosiblik bajarilishi kerak:

$$\frac{C_1}{REK_1} + \frac{C_2}{REK_2} + \dots + \frac{C_n}{REK_n} \leq l_1,$$

bunda C_1, C_2, \dots, C_n – havo tarkibidagi zaharli moddalarning amal-dagi konsentratsiyasi; $REK_1, REK_2, \dots, REK_n$ – havo tarkibidagi ruxsat etilgan zararli moddalarning konsentratsiyasi.

Xulosa: Foydali qazilmalarni ochiq usulda qazib olish jarayonida karyer havosi muhim ekologik va texnologik omil hisoblanadi. Karyer havosining tarkibi tabiiy atmosferadan farqlanib, chang, gazlar va turli kimyoviy aralashmalar bilan boyishi mumkin. Asosiy tarkibiy qismlar qatoriga kislorod (O_2), azot (N_2), karbonat angidrid (CO_2), chang va portlovchi gazlar (masalan, CO, NOx, SO_2) kiradi.

Karyer havosining sifatini nazorat qilish ishchilar salomatligini saqlash, atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun zarurdir. Havo almashinushi va changesizlantirish tizimlarining samarali ishlashi karyer muhitida xavfsizlikni ta’minlashga yordam beradi. Shu sababli, ochiq kon ishlarida karyer havosining monitoringi va zaruriy profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmonov, F. R. (2025). KONCHILIK SANOATIDA FOYDALI QAZILMALARNI SHLYUZLARDA VA MARKAZDAR QOCHMA SEPARATORLARDA BOYITISH. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(2), 60-68.
2. Usmonov, F. (2024). MINERAL ENRICHMENT PROCESSES. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(9), 250-260.
3. Usmonov, F. R. (2025). FOYDALI QAZILMALARNI BOYITISHDA G ‘ALVIRLASH JARAYONINING SANOATDA TUTGAN O’RNI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(1), 360-366.
4. Usmonov, F. R. (2025). FOYDALI QAZILMALARNI BOYITISHGA TAYORLASH YANCHISH JARAYONLARINI TAHЛИ. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(2), 8-20.
5. Usmonov, F. R. (2025). FOYDALI QAZILMALARNI BOYITISHGA TAYORLASHDA YANCHILGAN MAXSULOTLARNI KLASSIFIKATSİYALASH JARAYONI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(2), 21-31.

**INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION
OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.**
International online conference.

Date: 27th May-2025

6. Usmonov, F. R. (2025). FOYDALI QAZILMALARNI MAYDALASH JARAYONIDAGI MAYDALAGICHLARNING TURLARI TUZILISHI VA ISHLASH PRINSIPLARI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 2(2), 27-37.
7. Usmonov, F. R. (2025). KONCHILIK SANOATIDA RUDALARNI GRAVITATSIYA USULIDA BOYITISH NAZARIYASI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 2(2), 38-47.
8. Usmonov, F. R. (2025). FOYDALI QAZILMALARNING BOYITISH SXEMALARINING TURLARI VA ULARNI TUZISH PRINSIPLARI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 2(2), 15-26.
9. Usmonov, F. R. (2025). FOYDALI QAZILMALARNI MAYDALASH JARAYONLARI XAQIDA MA'LUMOT. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(2), 56-59.
10. Usmonov, F. R. (2025). KONCHILIK SANOATIDA FOYDALI QAZILMALARNI VINTLI SEPARATORLARDA VA PURKOVCHI KONUSLARDA BOYITISH. *Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology*, 2(3), 18-26.
11. Usmonov, F. R. (2025). KONCHILIK SANOATIDA RUDALARNI CHO'KTIRISH MASHINALARIDA BOYITISH TARAQQIYOTI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(3), 39-47.
12. Usmonov, F. R. (2025). FOYDALI QAZILMALARNI KONSENTRATSION STOLDA BOYITISH JARAYONI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(3), 61-69.
13. Usmonov, F. R. (2025). KONCHILIK SANOATIDA FLOTATSIYA JARAYONLARI UCHUN QO 'LLANILADIGAN FLOTOREAGENTLARNING TAVSIFLANISHI. *Modern World Education: New Age Problems–New solutions*, 2(4), 31-40.
14. Usmonov, F. R. (2025). FLATATSIYA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN YIG'UVCHI, KO'PIK HOSIL QILUVCHI, MOSLOVCHI VA FAOLLASHTIRUVCHI REOENTLAR TAHLILI. *Modern World Education: New Age Problems–New solutions*, 2(4), 47-57.
15. Usmonov, F. R. (2025). KONCHILIK SANOATIDA FOYDALI QAZILMALARNI FLOTATSIYA USULIDA BOYITISH. *Modern World Education: New Age Problems–New solutions*, 2(4), 15-24.
16. Usmonov F. . (2025). MURUNTOV KARYERIDA PORTLATISH ISHLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.. *Development Of Science*, 5(1), pp. 72-77.
<https://doi.org/0>
17. Usmonov, F. R. (2025). FOYDALI QAZILMALARNI FLATATSIYA USULIDA BOYITISHDA FLOTATSIYA SXEMALARINI TANLASH. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 2(4), 36-43.

INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th May-2025

18. Usmonov, F. R. (2025). KONCHILIK SANOATIDA RUDALARNI BOYITISH QO'LLANILADIGAN FLOTATSIYA MASHINALARINING TUZILISHI TURLARI VA ISHLASH PRINSIPLARI. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 2(4), 28-35.
19. Usmonov, F. R. (2025). KONCHILIK SANOATIDA RUDALARNI RUDA VA MINERALLARNI MAGNIT XOSALARI VA MAGNIT SEPARATORLARI. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 2(4), 32-41.
20. Usmonov, F. R. (2025). FOYDALI QAZILMALARNI FLATATSIYA USULIDA BOYITISHDA FLOTATSIYA MASHINALARINI TANLASH. *Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system*, 2(4), 13-19.
21. Usmonov, F. R. (2025). KONCHILIK SANOATIDA RUDALARNI MAGNITLI USULDA BOYITISH. *Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology*, 2(4), 40-47.
22. Usmonov, F. R. (2025). FOYDALI QAZILMALARNI ELEKTR USULIDA FOYDALANISH HAQIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR. *ИКРО журнал*, 15(01), 288-293.